

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDA YUZAGA
KELADIGAN NIZOLARNI OLDINI OLISH

Erkayeva Shahnoza Xoliqnazar qizi

*Farg'ona viloyati Buvayda tumani 12-umumiy o'rta Ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogikaning asosiy nizolari, o'quvchi va talabalar o'rtasida tushunish va tushuntirish metodlari, mukammal pedagogning katta tajribasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabati yoritib berilgan.*

Kalit So'zlar: *o'smirlilik yosh davri, nizoli vaziyatlar, sog'lom psixologik iqlim, axborot almashish*

KIRISH

Shaxsning shakllanishida o'smirlilik yoshi, o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Ulkan hayot yo'lining mana shu muhim bir qismida katta yoshdagi o'smir o'z oldiga kim bo'lish, nima, qanday va nima uchun erishish kabi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Masalalarni qanday qo'yishni va jamiyat bilan uyg'unligi shaxsning kelajakdagi keng istiqboliga bog'langan holda, uning faolligi, barqarorligi, ma'naviy pokligi, maqsadga yo'nalganligi, betakrorligi, ijtimoiy va psixologik jihatdan mazmundorligi jamiyat uchun ham qimmatlidir. O'smirlilik davrining qiyin davr bo'lishi ko'p jihatdan o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan holda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish sababli namoyon bo'lishi mumkin.

Shu sababli o'smirlilik yosh davrida mavjud nizoli vaziyatlarni tahlil qilish o'smirlilik inqirozlarining yengil bartaraf etilishiga va pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu davrda nizoli vaziyatlarning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'ladi. Jumladan, o'smirning o'z tengdoshlari orasida qulay mavqega erisha olmasligi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarning maqsadga muvofiq emasligi, oilaviy munosabatlardagi tushunmovchiliklar va hokazo.

ASOSIY QISM

O'smirlarning o'z tengdoshlariga intilishi o'zgacha bo'ladi. O'z tengdoshlari orasida o'zining sifatlarini boshqalar sifati bilan solishtirish, tenglik sharoitida u kimgadir boshqacha ko'rinish xususiyatlarini o'smirlar guruhida yaqqol kuzatish mumkin. Tengdoshlari orasidagi taniqli bo'lish va ularning hurmatiga sazovor bo'lish bu yoshdagi o'quvchilarning xususiyatlaridan yana biridir. O'smir o'zining ichki "qarash" lariga suyangan holda guruhda qo'llab-quvvatlovchi tayanch qidiradi. Tengdoshlari unga qanday baho berishida ular o'rtasidagi munosabatlar doirasida xilma-xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatlar o'smirda o'z mavqeyini tiklash uchun ijobiy harakatlarni

tanlash yoki aksincha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Shu kabilarning barchasi bevosita jamiyatning psixologik iqlimiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat, xususan o‘qituvchining bola faoliyatini salbiy baholashi holada o‘ziga past baho berishini tug‘diradi. Bu ayniqsa hissiyotli bolalarga xosdir. O‘qituvchining salbiy yo‘l-yo‘rig‘I bolaning o‘quv faoliyatiga salbiy tomonlarini va o‘z qobiliyatlarining pastligiga ishonchini shakllantiradi.

Hozirgi kunda psixologiyaning eng muhim masalalaridan biri jamiyatimizda sog‘lom psixologik iqlimni tahlil etishdir. Binobarin shunday ekan, psixologlar, pedagoglar bu dolzarb muammoni hal etishga o‘z bilim va kuchlarini to‘la safarbar qilmoqlari lozim.

O‘smirlik yosh davrida pedagogik muloqot bilan bog‘liq nizolar o‘ziga xos xarakter kasb etadi. Bunday nizolarni tushunish va tahlil qilish uchun eng avvalo pedagogik muloqot jarayonini va unda uchraydigan to‘siqlarni tahlil qilish kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat jarayonida faqat axborot berish vazifasi emas, balki uni tushunishga erishish masalasi ham turadi. Bu esa birinchidan, shaxslararo axborot almashishda asosiy muammo sifatida o‘qituvchi tomonidan berilgan ma‘lumotni o‘quvchi tomonidan tushunish masalasi turadi. Muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatlari hamda bir-birlari tasavvurlarga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Ta‘lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma‘lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir. Bu o‘rinda o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e‘tiborga olishni alohida ta‘kidlash lozim:

- o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e‘tibor, an’anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zlashtirishi;

- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o‘quvchilar xatti - harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaning

“ustoz-shogird” an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob’ektining diqqatini o‘ziga jalb qilish;

- muloqot ob’ekti, ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma’nosi o‘qituvchi o‘zining xushmuomalaligi, madaniyati, go‘zal xulqi, muloqotda o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishi bilan o‘z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko‘rsatib o‘tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta’sir ko‘rsatish uchun, o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, mushoara odobiga alohida talablar qo‘yiladi. Ushbu fazilatlar o‘qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o‘quvchilar bilan aniq maqsadni ko‘zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo, o‘z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishladigan yutuqlar o‘qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Bu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lishi shubhasiz. Faqat har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to‘g‘ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etishning o‘zi kifoya.

O‘qituvchi bilan o‘quvchining muloqotda bir-birlarini o‘zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o‘quvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o‘quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o‘qituvchi o‘zining muammolaridan, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni taxlil qilish bilan bartaraf etishi lozim.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo‘nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashuvchi uning shaxsiy xislatlarini rivojlantirib borishni ta’minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba’zi o‘quvchilarning sub’ektiv qarashlarini aniqlash, shu o‘quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak.

Mazkur vaziyatlarda o‘zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi ob’ektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilish;

- ob'ektda psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;
- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;
- o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;
- o'zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

XULOSA

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va xislatlarini, shuningdek, pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini taxlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayliv V.I. "Pedagogik mo'rorologiya asoslari" darslik. 1995. Rossiya.
2. Haydarov S.A. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlar". 2021. Toshkent.
3. Ochilova M. "Yangi pedagogika texnologiyalari".
4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
5. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> Vol. 1 No. 12 (2022): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 453-459-bet
6. A'zamxonov S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106/1058> Vol. 2 No. 22 (2022): LJODKOR O'QITUVCHI 381-386-bet
7. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> Vol. 2 No. 20 (2023): PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS

247-254–bet

8.

Azamkhanov

Saidabzalkhan. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT

<https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527>

<https://zenodo.org/records/8003552#.ZHzkDnZByUk>

Том. 11 № 5 (2023 г.): ФИДЖЕШ 2163-2169-bet

9. A'zamxonov Saidabzalxon Xasanboy o'g'li. (2023). TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8413744>

200-205-bet

10. Azamkhanov Saidabzalkhan Hasanboy ogli. (2023). INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS AS A FACTOR FOR IMPROVING THE QUALITY OF PROFESSIONAL TRAINING.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8413789> 102-108-bet

11. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>

12. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.

13. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.

14. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan- Eastern European Scientific Journal, 2018